

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida:
UO'K: 657.6:006-048.32(575.1)**

AHMADJONOV AZIMJON KARIMJON O'G'LI

**XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR VA
AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori, professor
T.Z. Teshabayev

Toshkent shahri – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I bob	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING XALQARO STANDARTLARI AMALIYOTGA JORIY ETILISHI, ZAMONAVIY AUDITORLIK FAOLIYATINING HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	16
1.1-§.	
O‘zbekiston Respublikasida elektr energetikasi sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari.....	16
1.2-§.	
MHXSni qo‘llashning mohiyati, zarurati hamda zamonaviy auditorlik faoliyatini tashkil etishning me‘yoriy-huquqiy asoslari.....	30
1.3-§.	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish muammolari va ularni hal etish yullari.....	40
Birinchi bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	62
II bob	
MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXSGA MUVOFIQ TUZISH METODIKASINING XUSUSIYATLARI VA AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISHDA XORIJ TAJRIBASI.....	64
2.1-§.	
Rivojlangan mamlakatlarda MHXSni qo‘llashning jahon tajribasi..	64
2.2-§.	
Xorijiy davlatlarda MHXS asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzishning metodik jihatlar.....	80
2.3-§.	
Auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda Yevropa davlatlarining tajribasi.....	93
2.4-§.	
Auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda Amerika va Osiyo davlatlarining tajribasi.....	106
Ikkunchi bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	123
III bob	
MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXS ASOSIDA TUZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	125
3.1-§.	
Aksiyadorlik jamiyatlarining hisob siyosatini MHXS asosida takomillashtirish.....	125
3.2-§.	
MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tuzishda avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlardan foydalanishni takomillashtirish.....	138
3.3-§.	
MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish.....	151
3.4-§.	
Buxgalteriya balansi, foyda va zararlar, pul oqimlari hamda xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotlarni MHXSga muvofiq tuzishni takomillashtirish.....	162
Uchinchi bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	181

4-BOB.	XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI O‘TKAZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
4.1-§.	Aksiyadorlik jamiyatlarida ko‘rsatiladigan auditorlik xizmatlari tarkibini rivojlantirish istiqbollari	183
4.2-§.	Auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish jarayonida avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotlardan foydalanish yo‘llarini takomillashtirish.....	194
4.3-§.	Xalqaro audit standartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvlarini yakunlash metodologiyasini takomillashtirish.....	203
	To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.....	218
	XULOSA.....	221
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	224
	ILOVALAR.....	230

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida energetika sektorining hal qiluvchi roli ko‘plab yirik milliy kompaniyalarning tashqi bozorga chiqishini taqozo etmoqda. O‘z faoliyatini xalqaro miqyosdagi amaliyotlar bilan bog‘lab borayotgan kompaniyalar salmog‘i tobora ortib bormoqda. MHXSning joriy etilishi va auditorlik tekshiruvlarini AXS asosida o‘tkazish ko‘pgina energetika kompaniyalariga uzoq muddatli muhim afzalliklarni taqdim etmoqda. “Dunyo bo‘yicha energetika korxonalari tomonidan 2024-yilda 36000 teravatt/soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lib, shundan AQSH tomonidan 4400 teravatt/soat, Xitoy 9400 teravatt/soat va Hindiston 2200 teravatt/soat ishlab chiqarilgan”¹. Energetika kompaniyalari tomonidan tabiiy resurslarni yetkazib berish, ularni ishlab chiqarish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari orqali ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish hamda tashkilotlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, ularning moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tuzish va xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish muayyan mulohazalarni talab etadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar asnosida elektr energetikasi sohasida MHXSni joriy etish hamda takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xorijiy investorlar va investitsiyalarni jalb qilishda banklar, sug‘urta kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik soliq to‘lovchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, mazkur standartlar asosida ish olib borishni takomillashtirish, audit tekshiruvining xalqaro audit standartlariga muvofiqligini ta’minlash, manfaatdor shaxslar uchun axborot shaffofligi darajasini oshirish, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tuzishda avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, auditorlik tekshiruvlarini avtomatlashtirish, auditorlik xizmatlari tarkibini kengaytirish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

¹ Manba: https://gropedia.com/page/Electricity_by_country; <https://www.uzbekistonmet.uz/uz/lists/view/6568>; https://gropedia.com/page/Electricity_by_country; https://gropedia.com/page/Electricity_by_country

O‘zbekistonda, so‘nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va aholining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini tobora to‘laroq qondirish maqsadida, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini oshirish chora-tadbirlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, “zamonaviy texnologiyalar va energiyani tejaydigan uskunalarni joriy etish orqali energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, shu bilan elektr ta‘minoti uchun o‘ziga xos yoqilg‘i sarfini 10 %gacha kamaytirish, yoqilg‘i-energetika balansini diversifikatsiya qilish, qattiq yoqilg‘i ulushining oshishi va iste‘molchilarning elektr energiyasiga ehtiyojini qanoatlantirish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda energetika sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish va auditorlik tekshiruvlarini takomillashtirish, auditorlik tekshiruvlarini auditning xalqaro standartlari asosida o‘tkazishning umumiy mexanizmi, auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanishni takomillashtirish, auditorlik tekshiruvi natijalarini hujjatlashtirish jarayonini takomillashtirish, jumladan, faoliyat turi bo‘yicha mazmunan yaqin korxonalar uchun MHXS asosidagi buxgalteriya hisobining yagona schyotlar rejasini tuzish, elektr energiyasi korxonalarida MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirilgan dastur yordamida tuzish jarayonlarini joriy etish, elektr energiyasi korxonalari hisob siyosatini takomillashtirish kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston –2030” strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15 senyabrdagi PQ-282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5210-son “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini

² Manba: <https://minenergy.uz/uz/lists/view/33>